

OILA – EKOLOGIK TARBIYANING MUHIM MASKANI

Rahimboyeva Dilbarhon

Namangan davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Email: dilbarxonrahimboyeva@gmail.com

OrcID: <https://orcid.org/0000-0003-0855-126X>

Annotatsiya. Ushbu maqolada har bir murabbiy, komillik targ'ibotchisi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga, sog'lom ijtimoiy muhitni yaratib berishga, mas'uliyatli vazifalarni vijdonan bajarishi lozimligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Serfarzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik, mehnatsevarlik, sahiylik, mehmondo'stlik, oliy qadriyat, tadbirli, ziyrak ota-ona, ibratli hulk, chiroyli muomala, mehribonlik, kamtarlik, yaxshi nasixat, to'g'ri yo'l ko'rsatish.

СЕМЬЯ – ВАЖНОЕ МЕСТО ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье сообщается о том, что каждый тренер, пропагандист передового опыта должен правильно организовать учебный процесс, создать здоровую социальную среду, добросовестно выполнять ответственные задания.

Ключевые слова: родительство, детство, семейная жизнь, трудолюбие, великодушие, гостеприимство, высокая ценность, разумное воспитание, примерное поведение, хорошие манеры, доброта, смирение, хороший совет, руководство.

FAMILY IS AN IMPORTANT PLACE FOR ECOLOGICAL EDUCATION

Abstract. This article informs about the fact that every trainer, propagator of excellence should properly organize the educational process, create a healthy social environment, and conscientiously perform responsible task.

Key words: Parenthood, childhood, family, hard work, generosity, hospitality, high value, disciplined, intelligent parenting, exemplary behavior, good manners, kindness, humility, good advice, guidance.

KIRISH

Bugun butun dunyo oila instituti inqiroziga, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug'ilishlar ko'payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolarga to'qnash kelyapti. Olimlar bunday muammolar millatning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkinligini ilmiy jihatdan asosladi.

Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning doimiyligini, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita tasir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir.

Insonlar o'zlarini qurshab turgan tabiiy muhitni "ona tabiat" deb ataydilar. Bu bejiz emas. Odamzotga o'z bag'ridan joy bergan; uning yashashi, ishlashi, hordiq chiqarishi, tarixiy takomili uchun qulay shart-sharoit bo'lib xizmat qilgan tabiat bashariyat uchun ham beshik, ham ona vazifasini o'tagan desak, yanglishmaymiz.

O'zbek xalqi qadim-qadim davrlardan beri tabiatni sevib ardoqlab kelgan. Kishilarimiz o'zlarini yashab turgan muhitining bir bo'lagi sifatida his qilishga odatlanganlar. Ajdodlarimizning tabiatni asrab-avaylash, uning noyob boyliklarini kelgusi avlodlarga ko'paytirib, boyitib uzatish borasidagi mustahkam e'tiqodlari, ma'naviy-axloqiy tamoyillari oila orqali kelgusi avlodlarga singdirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oila – insoniyat dahosi ixtiro qilgan eng buyuk kashfiyot, odam zoti uchun eng aziz ne'matdir. Oila – inson tug'ilib, voyaga yetadigan muqaddas makon, farzandlarning unib o'sar bo'stoni. Ularning bu bo'stonda o'sib ulg'ayishi, kamol topishi va rivojlanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarni tabiiy fanlar tmzimida jonsiz (abiotik), jonli (biotik) hamda inson (antropogen) omillari tarzida farqlab ko'rsatish mumkin. Oila makonida farzadlarning ulg'ayishi ham jonsiz (abiotik), jonli (biotik) va inson (antropogen) omillarning ta'sirlari ostida bo'ladi.

Abiotik ya'ni jonsiz tabiiy omillar. Abiotik omillar havo, suv, tuproq, yerning magnit maydoni, harorat, namlik, yorug'lik, tovushlar singari ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. Bu omillarning turli darajada voqe bo'lishi oila a'zolarining salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi. Abiotik omillarning gigienik me'yoriy holatda bo'lishi xonadonda ijobiy muhit yaratadi.

Toza havo, yorug'lik, pokiza tabiiy tuproq, tog' va adirliklar manzarasi, suv havzalari, tabiat hodisalari oila a'zolarining ruhiyatiga, kayfiyatiga ko'tarinkilik baxsh etadi. Bu esa, o'z navbatida, oilada aqliy va jismoniy rivojlanish uchun qulay shart-sharoit – xursandlik, xotirjamlik, bag'rikenglik o'zaro murosada bo'lish iqlimini yaratadi. Shu asnoda, oilada jonsiz tabiat hadya etgan ne'matlarni qadrlash, asrab-

avaylash zarurligi haqidagi birlamchi tushunchalar shakllanib boradi. Farzandlarda havoni, suvni, atrof-muhitni toza saqlash mas'uliyati yuzaga keladi.

Suv – tiriklik boisi, hayot manbai. Xonadonlarda suvni huda-behuda oqizmaslik, uni tejashni o'rgatish bilan birga bolalarga suv to'g'risida keng ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiqdir.

Masalan: inson tanasining 70-80 foizi suvdan tashkil topgani; salomatligimiz ko'p jihatdan qanday suvni iste'mol qilganimizga bog'liqligi; ichimlik suv tabiatda nihoyatda noyob ne'mat ekani; sovuq suvning qisqa muddatli ta'siri shifobaxshligi; yuvinish, cho'milish tozalik va salomatlik garovi ekani; eng "shifobaxsh" suvlar – buloq, tabiiy havzalardagi, ekologik toza joylardagi yomg'ir va qor suvlari ekani farzandlarga beriladigan eng muhim bilimlar jumlasiga kiradi. Tabiiy toza suv havzalar bo'yiga sayru sayohatlar uyushtirish, suvning kuchi, siru-sinoati haqida hikoyalar aytib berish alohida ahamiyat kasb etadi.

Biotik omillar. Bularga barcha tirik narsalar – o'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar kiradi.

Xonadonlarda va hovlilarda gul o'stirish, uy hayvonlarini boqish, oilaviy ravishda ko'kalamzorlashtirish tadbirlarida ishtirok etish, bolalarni jonli tabiat bilan kengroq tanishtiruvchi sayohatlar uyushtirish, ularda o'simlik va hayvonlarga nisbatan ehtiyotkorlik hissini tarbiyalaydi. Farzadlarimizni yuqoridagi kabi ishlarga jalb etganimizda ularda o'simlik va hayvonlar barchamiz uchun faqat xom-ashyo, yashash muhitini obodonlashtiruvchi vositalar bo'lmasdan, inson singari tirik tabiiy mavjudot ekanligi haqida tassavurlarning shakllanishi oson kechadi. Bunday tarbiya olgan bolalar ulg'ayganda xech qachon daraxtlar shoxini sindirmaydi va qushlarga tosh otmaydi. Biotik omillar ta'sirida ekologik ong shakllanishi bilan bir qatorda, estetik hissiyotlar ham rivojlana boradi.

Tomorqalarda oila a'zolarining hamkorlikda ishlashi, meva-sabzavotlar yetishtirishi, gullar va hayvonlarni parvarish qilishi oiladagi ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishga, oila a'zolarini jipslashtirishga, oilaning moddiy holatini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Ota-onalar farzandlariga yuqumli kasalliklarning manbai bo'lgan turli mikroba va viruslar ekanligini tushuntirib, mikroblar iflos muhitda ko'payishi, yaxshi

yoritilgan va toza xonadonlarda barham topishi haqidagi bilimlarni anglatishlari zarur.

Antropogen omillar bu inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan atrofdagi narsalar va voqealar. Barcha ijtimoiy, jumladan oiladagi munosabatlar ham antropogen tabiatga ega. Oila miqiyosidagi deyarli barcha narsalar odam faoliyati ta'sirida o'zgargan. Mebel, asbob-uskunalar, kitob-daftarlar, oziq-ovqat mahsulotlari insonning faoliyati ishtiroqida yaratilganligi va uning ehtiyojiga muvofiq qilinganligi tufayli antropogen omillarga kiradi.

Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari ham hayvonlardan farq qilganligi uchun antropogen xususiyatga ega. Bolaning rivojlanishida antropogen omillardan ota-onaning savodxonligi katta rol o'ynaydi. Oila tutish, uni boshqarish, turli janjallarni oldini olish, sabr-toqatli bo'lish, oila obro'cini ko'tarish uchun oila a'zolarining savodxon bo'lishi zarur.

Ota-ona hech bo'lmaganda bola organizmi qanday o'sishi, ishlashi, inson organizmi uchun nima foydali va nimalar zarar ekanligini, nimalar jismoniy, aqliy va ma'naviy yuksalishning negizi ekanligi haqida elementar ma'lumotlarni bilishlari zarur. Bu oila a'zolarining sog'ligini saqlash va farzandlarni to'g'ri tarbiyalash imkonini kengaytiradi.

Oila – bir birini qo'llab, bir-biriga samimiy, xolis g'amxo'rlik qiluvchi qondosh, jondosh kishilarning bardavom jamoasidir. Oila a'zolarining bir-birovi mehrini qozonishga harakat qilishi sog'lom muhit va sog'lom munosabatlarning asosidir. Inson uchun oila jamoasida va jamiyatda uyg'un hayot kechirish tabiat bilan hamohang yashash kabi muhimdir. Bunday muvozanatga xudbinlik negizida emas, balki fidoyi insonparvarlik asosida erishish mumkin.

Qarindosh-urug'chilikda mehru oqibat ko'rsatish, kasal va muxtojlar holidan xabar olib turish singari harakatlar bolaning ko'nglini yumshatadi.

“Odamlar o'zingizga qanday munosabatda bo'lishini istasangiz, ularga ham xuddi shunday munosabatda bo'ling”, – degan dono fikr eng avvalo oilada singdirilishi kerak.

“Yaxshi niyat – yarim mol», –deydi xalqimiz. Yaxshi niyat, ezgu tilakda hikmat ko'p. Shuningdek, shirin so'z, o'zaro hurmat ham oiladagi ma'naviy kamolot negizidir.

Kattalar ishda, ko'chada gap yoki tanbex eshitganda, ishi yurishmay qolganida bir-biridan yoki bolalaridan “alami”ni olmasligi kerak. Bola o'zini oilada ortiqcha, tahqirlangan his qilmasligi zarur.

Bolani o'ta erkalatib yuborish, uning barcha istaklarini bajo keltirish, inijliklarini ko'tarish ham to'g'ri kelmaydi. Farzandlarimizga u oilaning to'la huquqli a'zosi ekanini anglatish darkor. U oilada o'z huquqi va burchlari borligini bilishi lozim. Xonadonimizda bolaning o'z ish stoli, kitoblari, buyumlari, xonasi yoki, hech bo'lmaganda, burchagi bo'lishi muhim.

Farzandning xulq-atvori o'zgarganda unga birinchi yordam beruvchilar ota-onaga bo'lishi zarur. Jismoniy kasallik boshlanguncha bolada hatto tajribali shifokor anglay olmaydigan, ruhiy siljishlar ro'y beradi. Mehribon va ziyrak ota-onalar bolaning yurish-turishidan, xulq-atvoridan, ko'rinishidan farzandidagi o'zgarishni sezadilar. Bu biror kasallikning yashirin davri, bolaning boshqalar bilan murosa qilolmayotgani, hatto zararli odatlarga o'rgana boshlagan davri bo'lishi mumkin. Ota-onalarning bunday vaziyatlarda bolaga mehr va e'tiborni oshirishlari, uni yaxshi ko'rishlarini ta'kidlab ko'rsatishlari, u bilan dildan samimiy suhbatlashishlari anchayin noxush holatlarning oldini olishi mumkin.

Oiladagi muhim antropogen jarayonlardan yana bittasi ovqatlanish va ovqatdir. Oila a'zolarining muntazam ravishda birgalikda chiroyli bezalgan dasturxon atrofida yig'ilishi, ovqatlanishi ularni o'zaro jipslashtiradi. Bu odat har bir a'zoning oilada o'z o'rnini borligi hissini rivojlantirib, farzandlarning o'z-o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Oila muhitida bolalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir etuvchi antropogen omillardan yana bittasi – bu gipodinamiya, ya'ni kam harakatlanishdir. Xonadonlardagi qulay sharoit, maishiy xizmatlarning rivoji odamlarning jismoniy harakatlanish darajasining kamayishiga olib keldi.

Shaharda yashovchi bolalarning harakatlar faolligi me'yorlardan 2-3 marta kam bo'ladi va bu holat ular organizmida harakatga "to'ymaslik" holatini, ya'ni gipodinamiyani keltirib chiqaradi. Buning sabablari unchalik uzoq bo'lmagan masofalarga borishda transport vositalaridan foydalanish, dars qilish va o'qish jarayonlarida uzoq vaqt bir joyda o'tirib qolish, televizorni davomli ko'rish kabilardir. Gipodinamiya holatida boladagi organizmning me'yoriy o'sib rivojlanishi, turli xil noqulay omillarga bardoshlilik kabi xususiyatlari pasayib, bolaning o'sib rivojlanishi ko'ngildagidek kechmaydi. Shu munosabat bilan bolalarning umumiy jismoniy faolligini maksimal ta'minlashga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir.

Eng muhim antropogen omillardan biri mehnat – zaruriy ijtimoiy jarayongina bo'lmasdan, u biologik ehtiyoj hamdir. Har qanday biologik ehtiyojni qondirmaslik esa "surunkali emotsional stress"ni keltirib chiqarib, u organizm uchun o'ta zararli oqibatlariga olib keladi. Odatda, bolalar yoshligidan kattalarga ko'maklashib, ular qilgan ishlarni qilishga o'zlarida rag'bat seadilar. Turli harakatli o'yinlar ham bolalarda mehnat malakalarini shallantirishga yordam beradi. Jismoniy mehnat ehtiyojga aylanib, bolalarning harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyojini ham qondiradi, ya'ni gipodinamiya holatining oldini oladi. Qadimgi Xitoyda: "Bola 5 yoshgacha podshoh, 12 yoshgacha xizmatkor, 12 yoshdan keyin do'st bo'lsin", – deya o'git berishgan. "Xizmatkor" deyilganda, bolaning uy ishlaridagi doimiy faol ishtiroki ko'zda tutilgan.

Ota-ona bolani mehnat va tartibga jalb qilish orqali uning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishiga ko'maklashib, uni oila va jamiyat ehtiyojlariga hamohang yashashga o'rgatadi. Salbiy ta'sir etuvchi antropogen omillar (transport, televizor, telefon va boshq.) ta'sirida magnit va shovqin to'lqinlarining o'zgarishi, turli maishiy chiqindilar ta'sirida tuproq, suv, havolarning ifloslanishi va boshqalar kiradi. Shunisi eng achinarliki, bunday vositalar, birinchi navbatda o'sayotgan organizmga ta'sir qiladi. Ko'p yillik eksperimental kuzatuvlarimiz va adabiyotlardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bola qanchalik yosh bo'lsa, u muhitning turli salbiy omillariga nisbatan shunchalik ta'sirlanuvchan bo'ladi. Bolalarning kompyuter, uyali telefonlar bilan me'yordan ortiq vaqt o'tkazishi ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan salbiy ta'sirga ega ekani haqida bugungi kunda juda ham ko'plab adabiyotlar mavjud.

XULOSA

O'zbek oilasiga xos madaniyat, tartib intizomda juda ko'p tarixiy shakllangan an'analar yotadi. Lekin bugungi kunda tabiat va jamiyat o'rtasida muvozanatning o'zgarishi oilada farzandlarning har tomonlama kamol topishida abiotik, biotik va, ayniqsa, antropogen omillarning o'ziga xos ta'sir maydoniga ega ekanligini ko'rsatadi. Oiladagi sog'lom muhit bolalarni turli zararli xavfli odatlar (chekish, alkogol va narkotiklarni iste'mol qilish, vaqtni bekorga o'tkazish)dan asraydi. Oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan e'tibori va oqibati bolalarning har tomonlama kamol topishida eng samarali vositadir.

Oilaning turmush tarzida ekologik munosabatlarning zamonga qarab o'zgarishi hayotiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj bolani ijtimoiy hayotga tayyorlashning asosini tashkil etadi. Oilada ekologik malakalarni shakllantirish jamiyat va tabiat o'rtasida uyg'unlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 майдаги ПФ-77-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.05.2023 й., 06/23/77/0298-сон)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 майдаги ПФ-77-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.05.2023 й., 06/23/77/0298-сон)
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. –Т.: Маънавият, 2000.
5. Бурхонуддин Марғиновий. Ҳидоя, I-жилд, Никоҳ китоби: –Т.: Адолат, 2002.
6. Ислом одоблари энциклопедияси. –Т.: Нил-Нашр, 2019.
7. Ойбек Неъматуллоҳ, Илҳомжон Мурод Али. “Исломда оила” муаммо ва ечимлар. –Т.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2019.
8. <https://hidoyat.uz/49437>